

TURKISTONDA YER VA DAVLAT MULKI BOSHQARMASI FAOLIYATI
DAVRIDA SAMARQAND VILOYATIDA PILLACHILIK

Allayarov Otabek Xaliyorovich
ISFT instituti Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasining Samarqand viloyatidagi ipakchilik sohasida amalga oshirgan ishlari, Samarqand ipakchilik nazorat stansiyasi faoliyati haqida soʻz boradi. Shu bilan birga ayrim yillarda viloyatda yetishtirilgan pilla hosilining sarhisobi haqida maʼlumotlar jamlangan.

Kalit soʻzlar: Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi, Samarqand ipakchilik nazorat stansiyasi, Xoʻjand, pilla, ipak, pud, urugʻ, uezd, namuna.

Yurtimiz hududida hunarmandchilikning ipakchilik tarmogʻi qadimdan rivojlanib kelgan. Taxminan, IV asrda Xitoydan kirib kelgan bu soha Markaziy Osiyoda keng tarzda rivojlandi.

N.O. Perovskiy oʻzining asarida Markaziy Osiyo ipakchiligi tarixi haqida maʼlumotlar berib oʻtadi. Ushbu faktlar nisbiy hisoblanadi. “Markaziy Osiyoda ipak qurti boqish, ipak yigirish va ipak matolar ishlab chiqarish sanʼatining paydo boʻlishi haqida tarixiy maʼlumotlar nihoyatda kamdir.

Turli xil tut daraxtlarining katta miqdorda mavjudligi, ipak qurti boqish hududining kengligi va uzoq vaqt davomida ipak ishlab chiqarilishi baʼzi mualliflarga bu sanʼat qadimdan mavjud boʻlgan degan fikrni ilgari surishga asos boʻlgan. Biroq, ehtimol, bu sanʼat, balki Xitoydan kirib kelgan.

Bu fikr umuman rad etilmaydi, balki vaqt nuqtayi nazaridan bu bizdan ancha uzoq davrda sodir boʻlgan boʻlishi mumkin”, -deydi N.O. Perovskiy oʻz asarida⁵. Demak, ipakchilik yurtimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻrta Osiyo hududi Chor imperiyasi tomonidan egallanib olingandan soʻng boshqa sohalar kabi ipakchilikni rivojlantirish va natijada bu sohadan ham katta foyda olishga harakat qilindi. Turkistonning tabiiy manbalarini ekspluatatsiya qilishning bir tarmogʻi ularoq bu faoliyat bilan XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi shugʻullandi.

Ushbu tashkilot Turkiston oʻlkasida davlat mulkini boshqarish boʻyicha oliy organi shakllantirish maqsadida 1897-yil 2-iyunda tasdiqlangan reja negizida tashkil etilgan. Boshqarma oʻz vazifalarini hududiy kengashlar, shuningdek, tuman boshliqlari va qishloq xoʻjaligida yer tuzish boʻlimining mansabdor shaxslari orqali amalga oshirgan. Tashkilot tomonidan sugʻorish ishlariga texnik nazorat, qishloq xoʻjaligi muassasalari va qishloq xoʻjaligi faoliyatini nazorat qilish, oʻrmonchilik ishlari va qishloq xoʻjaligi zararkunandalariga qarshi kurash, foydali qazilmalarni qidirish uchun ruxsatnomalar berish joriy etilgan. Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi Turkiston Respublikasi Qishloq

⁵ Шелководства и шелкоматание в Средней Азии. Н.О. Перовский. Тифлис. 1904. Типография К.П. Козловск. 5-бет

xo'jaligi xalq komissarligining 1917-yil 23-noyabrda Turkiiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasining qarori tuzilgach tugatilgan⁶. Boshqarmaning qishloq xo'jalik bo'limi ipakchilik masalasi bilan shug'ullangan⁷.

Samarqand viloyati ipakchilik sohasida muhim ahamiyatga ega hudud hisoblanib, ayniqsa, bu borada Xo'jand uezdi alohida maqomga ega edi. Shuningdek, viloyatda Samarqand ipakchilik nazorat stansiyasi tashkil etilgan bo'lib bu stansiya mintaqadagi eng yirik pilla qabul qilish va uni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazish markazlaridan biri hisoblanardi. Bu tashkilotning faoliyati ham Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi tomonidan nazorat qilinib borilardi.

Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi boshlig'i 1901-yil sentyabrda Samarqand ipakchilik nazorat stansiyasi boshlig'iga yozgan xabarnomasida:

Siz, janobga quyidagini xabar qiladi: 1897-yil 2-iyundagi qonunga muvofiq, Turkiston o'lkasida yer va davlat mulki vazirligi organlari joriy etilgach, bu o'lka viloyat boshqarmalari qishloq xo'jaligi va davlat mulki vazirligiga oid masalalarda Davlat mulki boshqarmasi huquqlari asosida ish yuritadi. Shu munosabat bilan, qishloq xo'jaligi va davlat mulki vazirligining joylardagi quyi organlari mahalliy viloyat boshqarmasiga bo'ysunuvchi organlar deb hisoblanadi. Bundan tashqari, nazorat komissiyasi raisi-viloyat boshqarmasi qoshidagi qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha xizmat qiluvchi amaldordir. Ishni yuritishda yordam bo'lishi uchun ushbu ko'rsatma mazmuni Samarqand viloyati boshqarmasiga ham yetkaziladi, deyiladi⁸. Ushbu xabarnomadan ko'rinib turibdiki tashkilot ilk yillardanoq qishloq xo'jalik bo'limi orqali ipakchilik sohasini ham o'z faoliyat yo'nalishlari qatoriga olgan.

Samarqand ipakchilik nazorat stansiyasi pillaning turli xil kasalliklarga qarshi kurashish markazi ham bo'lib mahalliy ipak bilan chet eldan kirib kelayotgan ipaklarni o'zaro taqqoslash, kasalliklarni tarqalishini oldini olish kabi laboratoriya ishlarini doimiy tarzda olib boradi.

Mahalliy hokimiyat pillachilikni jonlantirish uchun katta mablag' sarfladi. Mahalliy aholi daromadli mehnat sohasiga qanday ta'sir ko'rsatishini tajribadan o'rgangan holda, ipak stansiyalarini to'xtatib, ularni parvarishlash uchun hozirgacha ajratilgan mablag'lar hisobidan Samarqand shahrida barcha importchilar o'tishi kerak bo'lgan bitta nazorat punkti tashkil etildi. Pillalar mikroskopda tekshiriladi va sifatli tovarlar maxsus posilka bilan yopishtiriladi, bu esa xaridorga pebrina (pilla kasalligi) bilan pilla urug'i sotib olishdan himoyalanihga kafolat beradi. Pillachilar uchun apellyatsiya organi qishloq xo'jaligi vazirligining mahalliy mutasaddilari va Turkiston qishloq xo'jaligi a'zolaridan iborat tekshirish komissiyasi hisoblanadi.

Ipakchilikning asosiy savdo bozorlari hisoblangan Farg'ona viloyati, Xo'jand va Toshkent shaharlariga pillani o'tishini kechiktirmaslik uchun Samarqand boshqaruv stansiyasiga juda ko'p mikroskopchilar shtabi zarur⁹. Ushbu ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, stansiyaning moddiy texnik imkoniyatlari nisbatan to'laqonli ta'minlanmagan.

⁶ O. Allayarov. Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi hamda uning Samarqand viloyatidagi faoliyati. "Imom Buxoriy saboqlari" jurnali. 2025/2. 24-bet

⁷ Дилафруз Файзуллаева. Туркистон ўлкасида давлат муассасалари тарихидан (XIX аср охири-XX аср бошлари). Магистрлик диссертацияси. Т-2018. 63-бет

⁸ O'zMA. I-7. Orip-1. 2342-ish. 24-bet

⁹ И.И. Гейер. Туркестан. Ташкент. Типография Туркестанского Т-ва печатного дела. 1909. 91-бет

Ammo har holda yirik nazorat stansiyasi sifatida doimo e'tiborda bo'lgan. Buni quyidagi manba ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Nazorat stansiyasi hisobotlarida 1900–1901-yilgi Samarqand ipakchilik nazorat stansiyasi Turkistonda yer va davlat mulklari boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va o'lkaviy boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan yangi yo'riqnoma asosida faoliyat yuritdi.

Chet eldan pilla qurti olib kirilishi 1900-yilning noyabr oyi o'rtalaridan boshlandi. Namunalarni tanlab olish uchun urug' Samarqand viloyati boshqarmasining qishloq xo'jaligi bo'limiga yuborilgan, shundan so'ng nazorat stansiyasi huzuridagi omborlarga saqlash uchun keltirilgan.

Pilla namunalarini tekshirish uchun stansiyaga yuborilishi:

— Samarqand komissiyasi tomonidan 1900-yil 6-dekabr, dan,

— Farg'ona komissiyasi tomonidan esa 1900-yil 24-dekabr, dan boshlangan.

Nazorat stansiyasi pilla qurti urug'larini sinash uchun yetarlicha inkubatorlarga ega bo'lgani bois, mazkur faoliyatni amalga oshirish imkoniyati to'la ta'minlangan edi. Namunalar hech qanday kechikishlarsiz, zaxiralarsiz olib kelindi va darhol sun'iy inkubatsiyaga (issiq muhitda ochish uchun) qo'yildi. Namunalarni tekshirish 23-dekabr, dan boshlandi.¹⁰ Ushbu hisobotdan shu ma'lum bo'ladiki, Samarqand nazorat punkti Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi uchun juda muhim sanalgan. Hattoki, Turkiston General Gubernatori bu stansiyaning faoliyatiga yuksak yaxshi berib Farg'onadagi stansiyani Samarqand namunasida shakllantirishni va ishlashini ta'minlashni talab qilgan.

Samarqand viloyati ipak yetishtirish masalasida ham alohida o'rin egallab kelgan.

Samarqand viloyatida pilla yetishtirishning o'sishini quyidagi faktlardan ko'rish mumkin:

Yil	Pilla yetishtirish. (Pud)
1888	6 642
1892	16 510
1893	27 811
1897	46 081
1899	70 876
1905	76 876

1888-1905-yillardagi bu statistik ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida pilla yetishtirish har yili o'rtacha 2 barobarga, 1905-yilda esa 1888-yilga nisbatan 11,5 barobarga yoki 1888-yildagi 6 642 pud, dan 76 384 pudga oshgan.¹¹

Ammo keyingi yillarda bu ko'rsatkichlarda pasayishni ko'rishimiz mumkin. 1907-yilda viloyat aholisi tomonidan jami 24 987 pud (1 pud taxminan 16,38 kg) pilla hosili olindi. Pillachilikning asosiy hududi Xo'jand uezdi bo'lib, u yerda 23,840 pud hosil olindi. Eng yuqori sifatli ipakni Xo'jand uezdi beradi.¹²

¹⁰ O'zMA. I-7. Opis-1. 2342-ish. 45-bet

¹¹ Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX-начале XX веков из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины. С. 1970. 120- бет

¹² Справочник Самаркандской области на 1909 год. С. Типо-Литография Г.И. Демурова; 1908. 19-бет

Yoki 1910-yil holatini ko'rib o'tadigan bo'lsak ham 1905-yilgi ko'rsatgichlarga yaqinlasha olmadi. Samarqand viloyatida 1910-yil ma'lumotlariga ko'ra aholi tomonidan jami 27 558 pud pilla yetishtirilgan bo'lib bular uezdlarga quyidagicha mos keladi: Samarqand uezdi 3150 pud, Kattaqo'rg'on uezdi 29 pud, Jizzax uezdi 964 pud, Xo'jand uezdi 23 415 pud.¹³

Pilla narxlari ham turli hududlarda turli xil ko'rinishda hisoblangan. Bu hududning xaridorgirligi va pillaning sifati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Jumladan, Samarqand uezdida bir pud pilla 14 rubl, Kattaqo'rg'on uezdi 12,5 rubl, Jizzax uezdi 11 rubldan 12,3 rublgacha, Xo'jand uezdida 14 rubldan 15 rublgacha¹⁴ baholanadi. Bundan ko'rib turibdiki pillaning qiymati hududlar kesimida unchalik katta bo'lmasda farqlanib turibdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi mintaqadagi deyarli barcha sohalar ustidan nazorat o'rnatdi. Jumladan, ipakchilikni ham o'z yunalishiga qamram oldi. Samarqand viloyati ham ushbu soha orqali General Gubernatorlik xazinasini boyitdi. Shu bilan birga, viloyatdagi nazorat stansiyasining faoliyati ham bu borada alohida ahamiyatga kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Шелководства и шелкоматание в Средней Азии. Н.О. Перовский. Тифлис. 1904. Типография К.П. Козловск.
2. О. Allayarov. Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi hamda uning Samarqand viloyatidagi faoliyati. "Imom Buxoriy saboqlari" jurnali. 2025/2.
3. Дилафруз Файзуллаева.
Туркистон ўлкасида давлат муассасалари тарихидан (XIX аср охири - XX аср бошлари). Магистрлик диссертацияси. Тошкент-2018.
4. O'zMA. I-7. Opis-1. 2342-ish.
5. И.И. Гейер. Туркестан. Ташкент. Типография Туркестанского Т-ва печатного дела. 1909.
6. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX-начале XX веков из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины. Самарканд. 1970.
7. Справочник Самаркандской области на 1909 год. Самарканд. Типо-Литография Г.И. Демурова; 1908.
8. С. Г. Конопка. Туркестанский край. Ташкент. Г. М. Цвилинг. 1912.
9. Обзор Самаркандской области за 1910 год. Самарканд. Типография Б. Газаров и К. Слёжнов; 1912.

¹³ С. Г. Конопка. Туркестанский край. Ташкент. Г. М. Цвилинг. 1912. 121-бет.

¹⁴ Обзор Самаркандской области за 1910 год. С.: Типография Б. Газаров и К. Слёжнов; 1912. 21-бет